UDK: 634.711:632.52.

YANGI MALINA NAVLARNING MORFOLOGIK KO‘RSATKICHLARINI QIYOSIY O‘RGANISH

Jo‘rayev Akmaljon Normuxamadovich, q.x.f.f.d., professor,

Mamasidiqova Nafisaxon Xamidullo qizi, talaba.

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada malinaning Vladimir, Maravilla, Lyachka navlari hamda ayrim seleksiya namunalarining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan natijalar berilgan. Tadqiqot davomida o‘simliklarning gullar soni, mevalar soni, pishgan mevalar soni, shoxlar soni va barglar soni kabi biometrik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida navlarning vegetativ va generativ rivojlanish xususiyatlari baholandi.

Kalit so‘zlar: malina, rezavor mevalar, nav, hosildorlik, biometrik ko‘rsatkichlar, seleksiya, vegetativ rivojlanish, generativ rivojlanish.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НОВЫХ СОРТОВ МАЛИНЫ

Жураев Акмалжон Нормухамадович, доктор философии по сельскохозяйственным наукам (PhD), профессор.

Мамасидикова Нафисахон Хамидулло кизи, студентка.

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований роста, развития и урожайности сортов малины Владимир, Маравилла, Лячка, а также отдельных селекционных образцов. В ходе исследования были проанализированы такие биометрические показатели растений, как количество цветков, количество плодов, количество созревших плодов, число побегов и количество листьев. На основании полученных результатов

оценены особенности вегетативного и генеративного развития изучаемых сортов.

Ключевые слова: малина, ягодные культуры, сорт, урожайность, биометрические показатели, селекция, вегетативное развитие, генеративное развитие.

COMPARATIVE STUDY OF THE MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF NEW RASPBERRY CULTIVARS

Jorayev Akmaljon Normukhamadovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Agricultural Sciences, Professor.

Mamasidiqova Nafisaxon Xamidullo qizi, Student.

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies.

Abstract. This article presents the results of a study on the growth, development, and yield performance of the raspberry cultivars Vladimir, Maravilla, and Lyachka, as well as several breeding accessions. During the study, biometric parameters of the plants, including the number of flowers, fruits, ripe fruits, branches, and leaves, were analyzed. Based on the results obtained, the vegetative and generative development characteristics of the cultivars were evaluated.

Keywords: raspberry, berry fruits, cultivar, yield, biometric parameters, breeding, vegetative development, generative development.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish va aholini vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash davlat agrar siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Rezavor mevalar orasida malina (*Rubus idaeus* L.) o‘zining biologik xususiyatlari, yuqori oziqaviy qiymati va dorivor ahamiyati bilan alohida o‘rin egallaydi.

Malina mevalari tarkibida C, A, B guruhi vitaminlari, organik kislotalar, pektin moddalar, temir, kaliy va boshqa foydali elementlar mavjud. Shu sababli dunyo bozorida malinaga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda.

Malina plantatsiyalarining samaradorligi ko‘p jihatdan navlarning biologik xususiyatlariga bog‘liq. Har bir navning o‘sish kuchi, shoxlanish darajasi, barg hosil qilishi, gullash va meva tugish ko‘rsatkichlari turlicha bo‘ladi. Shuning uchun navlarni agrobiologik jihatdan o‘rganish va istiqbolli navlarni aniqlash ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi malina navlari va seleksiya namunalarining biometrik ko‘rsatkichlarini o‘rganish hamda hosildorligi yuqori bo‘lgan namunalarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti va usullari. Tadqiqot obyekti sifatida Vladimir, Maravilla, Lyachka navlari va seleksiya namunalari tanlab olindi. Tadqiqot davomida quyidagi biometrik ko‘rsatkichlar o‘rganildi: gullar soni , mevalar soni , pishgan mevalar soni , shoxlar soni, barglar soni. Kuzatishlar dala sharoitida olib borilib, olingan ma’lumotlar taqqoslash va tahlil qilish usullari yordamida baholandi.

Natijalar tahlili va muhokama. Tadqiqot natijalari malina navlari va seleksiya namunalari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Barglar soni o‘simlikning fotosintez faoliyati va umumiy rivojlanishini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2(I) namunasi 175 dona barg hosil qilib, barcha variantlar orasida eng yuqori natijani qayd etdi. Ushbu ko‘rsatkich mazkur namunada vegetativ rivojlanishning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari.

1-jadval

Malina navlari va seleksiya namunalarining biometrik ko‘rsatkichlari:

T/r	Navi	Gullar soni	Mevalar soni	Pish.mevalar soni	Shoxlar soni
1	Vladimir	-	-	-	28
2	(|)	-	-	-	37
3	Maravilla	7	56	5	18
4	2 (|||)	-	-	-	23
5	3 (|)	-	-	-	15
6	Августина Avgustina	-	10	1	36
7	Maravilla	7	34	-	40
8	4 (|)	-	-	-	19
9	Margaritta	3	33	-	19
10	5	-	14	5	27
11	Lyachka	-	13	10	20

Shoxlar soni bo‘yicha Maravilla navi yetakchilik qildi. Unda 40 dona shox hosil bo‘lib, bu natija boshqa navlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Shoxlarning ko‘pligi hosil beruvchi novdalar sonining ortishiga va kelgusidagi hosildorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Mevalar soni bo‘yicha 2(II) namunasi eng yuqori natijani ko‘rsatdi. Mazkur namunada 56 dona meva hosil bo‘lib, bu tadqiqotdagi eng yaxshi natija hisoblandi. Shuningdek, ushbu namunada 7 dona gul va 5 dona pishgan meva qayd etildi. Olingan natijalar mazkur namunaning yuqori hosildorlik salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Maravilla navida 34 dona meva va 7 dona gul kuzatildi. Bu nav vegetativ rivojlanish va hosildorlik ko‘rsatkichlarining uyg‘unligi bilan ajralib turdi.

4 (II) namunasi ham mevalar soni bo‘yicha yuqori natija qayd etib, 33 dona meva hosil qildi. Bu ko‘rsatkich namunani istiqbolli shakllardan biri sifatida baholash imkonini beradi. Lyachka navida 13 dona meva va 10 dona pishgan meva aniqlandi. Pishgan mevalar sonining eng yuqori bo‘lishi ushbu navning erta pishar

nav ekanligini ko‘rsatadi. Erta pishar navlar bozor talabini qondirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3 (III) namunasi 160 dona barg va 36 dona shox hosil qilgan bo‘lsa-da, mevalar soni 10 donani tashkil etdi. Bu holat vegetativ rivojlanishning generativ rivojlanishdan ustun bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Vladimir navida esa vegetativ rivojlanish qoniqarli bo‘lib, 28 dona shox va 120 dona barg hosil qilganligi qayd etildi.Umuman olganda, tadqiqot natijalari malina navlari va seleksiya namunalarining biologik hamda xo‘jalik jihatdan bir-biridan sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatdi.

Xulosa. 1. Tadqiqot natijasida malina navlari va seleksiya namunalarining biometrik ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi.

2. 2(I) namunasi barglar soni bo‘yicha eng yuqori natijani (175 dona) qayd etdi.

3. Maravilla navi shoxlar soni bo‘yicha yetakchi bo‘lib, 40 dona shox hosil qildi.

4. 2(II) namunasi mevalar soni bo‘yicha eng yuqori natijani (56 dona) ko‘rsatdi.

5. Lyachka navi pishgan mevalar soni bo‘yicha ustunlik qilib, 10 dona natijani qayd etdi.

6. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2(II), Maravilla va Lyachka navlari ishlab chiqarishga tavsiya etish uchun istiqbolli navlar sifatida baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ostonaqulov T.E. Mevachilik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

2. Buriev X.Ch., Rizaev R.R. Mevachilik va uzumchilik. – Toshkent, 2019.

3. Ergashev A., Abdullayev D. Rezavor meva ekinlarini yetishtirish texnologiyasi. – Toshkent, 2021.